

## Jizzax viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-mart oylarida, Jizzax viloyatida jami 1 733,6 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 119,4 % ni tashkil etdi.

#### Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajmi, mlrd so'm*	O'sish sur'ati, %
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1 733,6</b>	<b>119,4</b>
Jizzax shahri	568,8	106,3
Arnasoy	22,0	115,0
Baxmal	42,6	121,3
G'allaorol	81,3	157,0
Sharof Rashidov	194,0	117,4
Do'stlik	35,5	118,3
Zomin	174,1	161,4
Zarbdor	29,6	106,1
Mirzacho'l	28,6	160,1
Zafarobod	34,2	198,5
Paxtakor	66,4	112,2
Forish	46,8	172,9
Yangiobod	8,4	110,2

\*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

## I. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurilishi hajmi 1 349,4 mlrd so'mni (ulushi 77,8 %), o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 112,7 %;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 306,2 mlrd so'mni (17,7 %), o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 155,0 %;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 78,0 mlrd so'mni (4,5 %), o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 87,1 ni tashkil etdi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

## II. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 284,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Kuzatilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 56,6 foizga oshib, ularning umumiy hajmdagi ulushi 16,4 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 56,0 % to'g'ri kelib, bajarilgan qurilish ishlari hajmi 970,5 mlrd so'mni tashkil qildi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 17,7 % ga ko'paydi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 27,6 % ni yoki 478,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 7,1 % ga ko'paydi.

### Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari





### Hududlar kesimida korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Jizzax viloyati</b>	284,5	970,5	478,6	156,6	117,7	107,1
Jizzax shahri	28,6	469,5	70,6	28,2	127,7	107,5
Arnasoy	2,0	14,6	5,4	38,6	157,2	117,9
Baxmal	3,2	17,7	21,7	2,7 m	172,3	91,7
G'allaorol	29,0	28,4	23,9	24,8 m	95,7	114,3
Sharof Rashidov	38,8	127,9	27,2	0	94,8	89,9
Do'stlik	3,0	20,6	11,9	174,5	118,0	109,8
Zomin	84,4	58,3	31,3	3,6 m	120,6	86,7
Zarbdor	1,0	19,0	9,5	199,0	105,9	101,3
Mirzacho'l	5,6	7,6	15,4	3,0 m	93,8	194,6
Zafarobod	19,8	6,5	7,9	4,4 m	119,9	107,7
Paxtakor	9,9	42,3	14,2	2,7 m	106,4	90,2
Forish	4,2	34,9	7,8	2,2 m	172,6	156,5
Yangiobod	1,1	3,4	3,9	108,7	86,0	147,3

*\*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.*

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari G'allaorol (2025-yilning mos davriga nisbatan 24,8 m), Zafarobod tumani (4,4 m) va Zomin tumanlarida (3,6 m) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Forish (2025-yilning mos davriga nisbatan 172,6 %), Baxmal (172,3%) va Arnasoy (157,2 %) tumanlarida kuzatildi.

#### IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.



Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);

b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**

Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**

K. Butunbayeva  
72 221-51-02

**Manzil:**

Kimyogar maxallasi to'qimachilar  
ko'chasi

---